

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI
BUXORO TABIIY RESURSLARNI BOSHQARISH INSTITUTI**

ORZIYEV SARDOR SAMANDAR O‘G‘LI

**KO‘CHAT YETISHTIRISHDA BIOGUMUSDAN TUVAKCHALAR
TAYYORLAYDIGAN QURILMANI ISHLAB CHIQISH VA
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 - Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundariyasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor
Of Philosophy (PhD) on technical sciences**

Orziyev Sardor Samandar o‘g‘li

Ko‘chat yetishtirishda biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmani
ishlab chiqish va parametrlarini asoslash 3

Орзиев Сардор Самандар угли

Разработка и обоснование параметров устройства для изготовления
горшков из биогумуса при выращивании рассады..... 19

Orziev Sardor Samandar ugli

Development and substantiation of parameters of the device for making pots
from biohumusf in seedling cultivation 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 40

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI
BUXORO TABIIY RESURSLARNI BOSHQARISH INSTITUTI**

ORZIYEV SARDOR SAMANDAR O‘G‘LI

**KO‘CHAT YETISHTIRISHDA BIOGUMUSDAN TUVAKCHALAR
TAYYORLAYDIGAN QURILMANI ISHLAB CHIQISH VA
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 - Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T3738 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutida bajarilgan
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.qmii.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Imomov Shavkat Jaxonovich texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Azzam Turdiyevich Musurmonov texnika fanlari doktori, professor. Gaffarov Xasan Ravshanovich texnika fanlari nomzodi, dotsent.
Yetakchi tashkilot:	Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/30 06 2020 T 111 02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil « 4 » 03 soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180100, Qarshi, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Tel. 221-09-23, faks 224-13-95, E-mail: qmii@qmii.uz)

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (137 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Tel. 221-09-23, faks 224-13-95, E-mail: qmii@qmii.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 19 » fevral kuni tarqatildi
(2025-yil « 19 » 02 daqi № 8 raqamli reestr hayonnomasi)



F.M.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

D.Sh.Chuyanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.d., professor

E.U.Eshdavitov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo amaliyotida ko‘chat yetishtirishda organik chiqindilardan tuvakchalar tayyorlaydigan energiya-resurstejamkor va ish unumi yuqori bo‘lgan qurilmalarni qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. «Dunyo miqyosida issiqxonalarining umumiy maydoni kamida 1,3 million gektarni tashkil qilishini»¹ hisobga olsak, issiqxonadalar uchun tuvakchalar tayyorlaydigan ish sifati va unumi yuqori hamda energiya-resurstejamkor qurilmalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda issiqxonalarda ko‘chat yetishtirish uchun organik chiqindilardan tuvakchalar tayyorlashning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnik vositalarning yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmalarni yaratish, ishlab chiqish, texnologik jarayonlari va ularning ishchi qismlarining parametrlarini asoslash yo‘nalishlaridagi ishlarni ko‘rsatish mumkin. Bu borada, biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmani ishlab chiqish hamda uning texnologik jarayoni va parametrlarini asoslashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, polizchilik va sabzavotchilikda ko‘chatlarni innovatsion texnologiyalar asosida yetishtirish, ish sifati va unumi yuqori energiya-resurstejamkor ko‘chat yetishtirish uchun tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida, jumladan, “...qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘shishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo‘jaliklarida ish unumini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash...” vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda jumladan, ko‘chat yetishtirishda, konstruksiyasi oddiy unumi yuqori biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmani ishlab chiqish va uning talablar darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda taminlaydigan parametrlarini asoslash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»² Farmoni va 2019-yil 11-dekabrdagi PQ-4549-son «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»²gi, 2019-yil

¹ www.nrcs.usda.gov

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni

31-iyuldagi PQ-4410-son «Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ko‘chat yetishtirish uchun tuvakchalar tayyorlash qurilmalarini yaratish ularni takomillashtirish va parametrlarini asoslash bo‘yicha xorijda N.Vasilevna, P.Krasin, I.Bumbar, M.Kandelya, V.Ryabchenko, P.Shilkov, S.Shitov, S.Smirnov, A.Vinogradov, Y.Lipov, B.Shuljenko, L.Maxlin, D.Keybllar va boshqalar tomonidan tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Respublikamiz sharoitida ko‘chat yetishtirishda tuvakchalar tayyorlash qurilmalarini ishlab chiqish va qo‘llash, ularning ish ko‘rsatkichlarini o‘rganish bo‘yicha Sh.Imomov, A.Jo‘rayev, V.Ziyoyev, O.Qodirxo‘jayev, M.Adilov va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlar natijalari asosida yaratilgan qurilmalar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda qo‘llanilib kelinmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Ko‘chat yetishtirishda biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmani ishlab chiqish” (2023-yil 4-sentabr № 09/2023) mavzusidagi xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmaning konstruksiyasini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash orqali ko‘chat yetishtirish uchun biogumusdan tuvakchalar tayyorlashda mehnat sarfini kamaytirish hamda yuqori ish sifati va unumini taminlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ko‘chat yetishtirishda tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmalarni ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish;

ko‘chat yetishtirish uchun tuvakchalar tayyorlashda qo‘llaniladigan biogumusning fizik-mexanik va texnologik xossalarini o‘rganish;

biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmaning konstruksiyasini ishlab chiqish va texnologik ish jarayonini asoslash;

biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmani kam energiya sarflagan holda yuqori ish sifatini ta‘minlovchi parametrlarini nazariy va tajribaviy asoslash;

biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmaning parametrlarini uning agrotexnik va energetik ish ko‘rsatkichlariga ta‘sirini o‘rganish;

maqbul parametrlarga ega bo‘lgan biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmaning sinovlarini o‘tkazish va uning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholash.

Tadqiqotning obykti sifatida biogumusning fizik-mexanik xossalari, ko'chat yetishtirishda biogumudan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilma va uning texnologik ish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti ko'chat yetishtirishda biogumudan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilma ishchi organlarini biogumus bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonlarini ifodalaydigan analitik bog'lanishlar va matematik modellar, qurilma ish ko'rsatkichlarini uning parametrlariga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlaridan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, dehqonchilik mexanikasi, matematik statistikaning qonun va qoidalari, qurilma bilan biogumudan tuvakchalar hosil qilish sifatini aniqlash, eksperimentlarni matematik rejalashtirish usullari hamda mavjud me'yoriy hujjatlarda keltirilgan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko'chat yetishtirishda biogumudan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmaning konstruksiyasi ishlab chiqilgan va texnologik ish jarayoni asoslangan;

ko'chat yetishtirishda biogumudan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilma ish organlarining parametrlari kam energiya sarfi va talablar darajasidagi ish sifatini taminlash shartidan kelib chiqib asoslangan;

qurilma biogumusni zichlovchi va tuvakcha shakllantiruvchi porshenini harakatga keltiruvchi pnevmosilindrlarning bosim kuchi biogumus tuvakchalarining sifat ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda aniqlangan;

qurilmaning maqbul parametrlari uning sifat ko'rsatkichlari va energetik ish ko'rsatkichlariga ta'sirini baholovchi regressiya tenglamalarini yechish orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ko'chat yetishtirishda biogumudan tuvakchalar tayyorlaydigan energiyatejamkor, ish sifati va unumi yuqori bo'lgan qurilma ishlab chiqilgan va parametrlari asoslangan;

ishlab chiqilgan ko'chat yetishtirishda biogumudan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilma qo'llanilganda energiya va mehnat sarfini kamayishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usul va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o'zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan qurilma sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko'chat yetishtirishda biogumudan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmaning kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifatini taminlaydigan parametrlari asoslanganligi hamda olingan analitik bog'lanishlardan boshqa shunga o'xshash mashinalarning parametrlarini asoslashda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlar natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan qurilma bilan talablar darajasidagi biogumus tuvakchalarni tayyorlash, mehnat sarfini kamaytirish hamda ish unumini oshirishga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ko'chat yetishtirishda biogumudan

tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmani ishlab chiqish va parametrlarini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

ko'chat yetishtirishda biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmaga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellectual mulk markazi" davlat muassasasining foydali modelga patenti olingan ("Ko'chat yetishtirish uchun organik chiqindilardan tuvakchalar tayyorlash qurilmasi", №FAP 02281-2023 y.). Natijada ko'chat yetishtirishda biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmaning konstruksiyasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan.

ko'chat yetishtirishda biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilma O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi Buxoro viloyati fermer xo'jaliklarida joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 07-avgustdagi 05/04-04-378-son ma'lumotnomasi). Natijada sarflanadigan mehnat sarfi 40-60 foizga kamaygan, qurilmadan foydalanishda 35-40 foiz iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

ko'chat yetishtirishda biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmani ishlab chiqarishni o'zlashtirish uchun loyiha-konstrktorlik hujjatlari (texnikaviy shartlar va chizmalar) "BMKB-Agromash" AJ da loyihalash jarayoniga joriy etilgan ("BMKB-Agromash" AJning 2024-yil 5-iyuldagi 01-55-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'chat yetishtirishda biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmani ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari, jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining elon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellectual mulk markazi" davlat muassasasining 1 ta foydali modelga patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy qismi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Muammoning qo'yilishi va tadqiqot ishining maqsadi**" deb nomlangan birinchi bobida jahonda oziq-ovqat xavfsizligini taminlashda ko'chatlarni yetishtirish ahamiyati, sabzavot ko'chatlarini yetishtirish usullari,

ko‘chatlarni yetishtirish uchun tuvakchalar tayyorlashda texnik vositalarining turlari, ko‘chat yetishtirish uchun tuvakchalar hosil qilish qurilmalarini yaratish va takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar tahlili keltirilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Biogumus va tuproqning fizik-mexanik va texnologik xossalarini o‘rganish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tuproq va biogumusning qattiqligi, namligi, g‘ovakliligi va zichligini o‘rganish, biogumusni turli metallar bo‘yicha ishqalanish koeffitsiyentini aniqlash bo‘yicha laboratoriya tadqiqotlari va biogumusning laboratoriya tekshiruvi natijalari keltirilgan.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra biogumusning 0-5, 5-10, 10-15, 15-20 va 20-25 cm qatlamlarida mos ravishda namligi 11; 13; 16; 14 va 14,2 % ni, zichligi 0,76; 0,81; 0,9; 0,92 va 1,05 g/ cm³ ni, qattiqligi esa 1,15; 1,2; 1,25; 1,45 va 1,4 MPa ni tashkil qildi (1-rasm). Biogumusni nikel bo‘yicha ishqalanish koeffitsienti yuklama 0,78 N dan 2,78 N gacha oshganda 0,67 dan 0,74 gacha oshishi va 2,78 N dan 3,78 N gacha oshganda 0,7 gacha kamayishi kuzatildi. Laboratoriya tahlillariga ko‘ra biogumus tarkibida umumiy azotning massaviy ulishi quruq moddaga nisbatan hisoblanganda 3 %, fosforning massaviy ulishi (P₂O₅) 4,5 %, quruq moddaga nisbatan organik moddalarning massaviy ulishi 38,5 % ni tashkil qiladi.




1-rasm. Biogumusning qattiqligi (P_n), zichligi (ρ_n) va g‘ovakliligi (G_n) ni namuna olingan qatlam chuqurligi (h_q) ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi

Dissertatsiyaning **“Biogumusdan tuvakchalar tayyorladigan qurilmaning parametrlarini nazariy asoslash”** deb nomlangan uchinchi bobida biogumusdan tuvakchalar tayyorladigan qurilmaning konstruktiv sxemasi hamda uning ishchi organlarining parametrlarini asoslash bo‘yicha nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

O‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili va olib borilgan izlanishlar asosida biogumusdan tuvakchalar tayyorladigan qurilmaning konstruktiv sxemasi ishlab chiqildi. Taklif qilingan qurilmaga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Intellektual mulk markazi” davlat muassasasining foydali modelga patenti (FAP 02281-2023 y.) olingan.

Taklif etilayotgan ko‘chat yetishtirish uchun biogumusdan tuvakchalar tayyorlash qurilmasining ishlash texnologiyasi ketma ketligi quyidagicha (2-rasm). Qurilma ramasi 15 ga o‘rnatilgan yuklash idishi 9 orqali biogaz qurilmasidan ajratib olingan biogumus va tuproq aralashmasi (keyingi o‘rinlarda biogumus) siqish silindri 11 ga yuklanadi. Siqish silindri 11 ga tushgan mahsulotni zichlovchi porshen 10 ilgarilanma harakat qilib biogumus tuvakchasi shaklini hosil qiluvchi yoysimon qolip 7 lar ichiga yetkazib berib zichlaydi. Bunda porshenning oralig‘idagi 1 cm li bo‘shliq

va yoysimon qolip 7 lar orasida biogumusdan tuvakchalarning devori va tubi hosil qilinadi. Biogumus tuvakchalarning shaklini hosil qiluvchi yoysimon qolip 7 larning harakati pnevmosilindr 8 lar, zichlovchi porshen 10 ning harakati esa unga oʻrnatilgan pnevmosilindr 13 orqali taʼminlanadi. Pnevmosilindrlar 8 va 13 ga elektrodvigatel bilan harakatga keluvchi kompressordan pnevmoquvur yordamida siqilgan havo yetkazib beriladi. Biogumus tuvakchalarni shaklini hosil qiluvchi yoysimon qoliplar 7 ni va zichlovchi porshen 10 ning ilgarilanma-qaytma harakati bir vaqtda bajarilishini kantroller taʼminlab beradi. Zichlovchi porshen ilgarilanma xarakat qilganda biogumus siqish silindriga yuklash idishidan biogumus tushishini toʻxtatib turishni himoya tiqini bajaradi va biogumus tuvakchani tagini hosil boʻlishini tutkich 16 taminlaydi.



2-rasm. Biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmaning kinematik sxemasi:

1 – elektr manbai; 2 – nazorat datchigi; 3 – kompressor; 4 – monometr; 5 va 6 – pnevmatik klavinlar; 7 – yoysimon qolip; 8 va 13 – pnevmosilindrlar; 9 – biogumusni yuklash idishi; 10 – zichlovchi porshen; 11 – siqish silindri; 12 – ulagich; 14 – porshen shtogi; 15 – rama; 16 – tutkich


Qurilmaning agrotexnik va energetik ish koʻrsatkichlariga taʼsir etadigan parametrlarga quyidagilar kiradi: S – biogumusni siqish silindrga tushish darchasi yuzi, cm^2 ; α – biogumusni yuklash idishini biogumus siqish silindriga oʻrnatilish burchagi, $^\circ$; l_s – biogumusni surish yoʻli uzunligi, cm ; l_x – himoya tiqini uzunligi, cm ; l_u – biogumus siqish silindrini uzunligi, cm ; D_i – yoysimon qoliplarning ichki diametri, m ; L_q – yoysimon qoliplar ochilish oraliq masofasini, cm ; L_0 – yoysimon qoliplarning harakatlantiruvchi pnevmosilindrlarni oʻrnatilish oraliq masofasi, cm ; S_s – siquvchi silindrni biogumus bilan ishqalanishda ishchi yuzi cm^2 .

Biogumusni siqish silindrga tushish darchasi yuzi quyidagi ifoda boʻyicha aniqlandi

$$S = 2\pi r b \frac{\beta}{360}. \quad (1)$$

bunda b – darcha uzunligi, cm ; r – siqish silindrining radiusi, cm ; β – darcha yoyining markaziy burchagi, $^\circ$.

$b=12$ cm, $r=5$ cm va $\beta=90^\circ$ bo'lganda, (1) ifoda bo'yicha o'tkazilgan hisoblarda $S=94$ cm² ni tashkil qildi.



3-rasm. Qurilmaning asosiy parametrlari: 1 – rama; 2 – biogumusni yuklash idishi; 3 – biogumusni siqish silindri; 4 – zichlovchi porshen; 5 – zichlovchi porshenni harakatlantiruvchi pnevmosilindr; 6 – yoysimon qolip; 7 – yoysimon qoliplarni harakatga keltiruvchi pnevmosilindrlar; 8 – himoya tiqini; 9 – tutkich

Biogumusni yuklash idishini siqish silindriga o'rnatilish burchagi α ni quyidagi ifoda bo'yicha aniqlandi

$$\alpha = \arccos \frac{V_1}{Stmg\mu}. \quad (2)$$

bunda V_1 – yuklash idishidan siqish silindriga tushgan biogumus hajmi, cm³; t – siqish silindriga biogumusni tushish vaqti, c; m – siqish silindriga tushgan biogumusning massasi, g; g – erkin tushish tezlanishi, m/s²; μ – nikel bilan biogumusni ishqalanish koeffitsienti.

$V_1=422$ cm³, $t=5$ c, $m=380$ g, $g=9,81$ m/s², $\mu=0,7$ bo'lganda, $\alpha=42^\circ$ ni tashkil qildi.

Biogumusni surish yo'li zichlovchi porshen uzunligiga teng bo'lganda ishqalanish kuchi kamayib yoysimon qoliplar ichiga biogumusni zichlovchi porshen sifatli surishiga erishiladi, ya'ni

$$l_s = l_p, \quad (3)$$


bunda l_p – zichlovchi porshen uzunligi.

(3) ifodaga asosan $l_p=9$ cm.

Himoya tiqining uzunligini quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz

$$l_x = l_s + b + x_1, \quad (4)$$

bunda b – darcha uzunligi, cm; x_1 – muhofaza hududi kengligi, cm.



4-rasm. Qurilmaning siqish silindrida zichlovchi porshenning harakatlanish sxemasi

Himoya tiqini uzunligi (4) ifoda bo'yicha o'tkazilgan hisoblardan $l_x=23$ cm ni tashkil qildi.

Yuklash idishidan biogumusni tushishida zichlovchi porshen biogumusni yoysimon qoliblar orasiga sifatli yuklashi hamda himoya tiqin vazifasini bajarishga erishish shartidan siquvchi silindr uzunligini quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz

$$l_u = l_x + l_p + l_s + b + 2x_1. \quad (5)$$

$l_s=9$ cm, $b=12$ cm, $x_1=1,5$ cm bo'lganda, siquvchi silindr uzunligi (5) ifoda bo'yicha o'tkazilgan hisoblardan $l_u=56$ cm ni tashkil qildi.

Yoysimon qoliblarni ichki diametri (D_i) ni quyidagi ifoda bilan aniqlaymiz

$$D_i = D_p + 2\Delta t_d, \quad (6)$$

bunda D_p – siquvchi porshen diametri, cm; Δt_d – biogumus tuvakchalarning devori qalinligi, cm.

$D_p=8$ cm, $\Delta t_d=1$ cm bo'lganda, $D_i=10$ cm ni tashkil qildi.

Yoysimon qoliblar ochilish oraliq masofasi kuyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz

$$L_q = 2L_{sh}, \quad (7)$$

bunda L_{sh} – yoysimon qoliblar pnevmosilindrlarning shtogi yo'li, cm

$L_{sh} = 8$ cm bo'lganda, yoysimon qoliblar ochilish oraliq masofasi (7) ifoda bo'yicha o'tkazilgan hisoblardan $L_q = 16$ cm ni tashkil qildi.

Yoysimon qoliblarni sifatli yopilishi va qayta ochilganda biogumis tuvakchalarni erkin tushishi shartidan pinemosilindrlarni ramaga o'rnatilish oraliq masofasi L_0 ni quyidagi ifoda olindi

$$L_0 = 2 \cdot (L_{ch} + L_{sh} + \Delta Q_q) + D_i = 2(L_{ch} + L_{sh} + \Delta Q_q + \Delta t_d) + D_p, \quad (8)$$

bunda L_{ch} – pnevmosilindr shtogini silindridan chiqib turgan qismi, cm; ΔQ_q – yoysimon qolip qalinligi, cm.

$L_{ch}=4$ cm, $L_{sh}=8$ cm, $\Delta Q_q=1$ cm, bo'lganda, pinemosilindrlar ramaga o'rnatilish oraliq masofasi (8) ifoda bo'yicha $L_0 = 36$ cm ni tashkil qildi.

Siquvchi silindrni biogumus bilan ishqalanishda bo'ladigan ishchi yuzasi quyidagi ifoda bo'yicha aniqlandi

$$S_s = 2\pi r l_x. \quad (9)$$

(9) ifoda bo'yicha o'tkazilgan hisoblarga ko'ra $S_s=722 \text{ cm}^2$ ni tashkil qildi.

Yoysimon qoliplarni ushlab turish uchun pnevmosilindrlar bosim kuchi quyidagi ifoda olindi

$$F_{yq} = \frac{2mg}{\pi D_i b_y} (1 + \mu) + m_q g + \frac{2(mg)^2 (S_y - S_1)}{\pi D_i b_y}, \quad (10)$$

bunda $m=380 \text{ g}$, $g=9,81 \text{ m/c}^2$, $m_q=600 \text{ g}$, $D_i=10 \text{ cm}$, $b_y=10 \text{ cm}$, $S_y=157 \text{ cm}^2$, $S_1=15,7 \text{ cm}^2$ bo'lganda yoysimon qoliplarni ushlab turish uchun pnevmosilindrlar kuchi (10) ifoda bo'yicha $F_{yq}=424 \text{ N}$ ni tashkil qildi.

Zichlovchi porshen pnevmosilindrlari harakatlanishiga qarshilik qiladigan kuchlar quyidagi ifoda olindi

$$\begin{aligned} F_{pq} = & \mu \frac{F}{\pi r_2 (r_2 + 2h_2)} + \mu \frac{F}{2\pi r l_x} + P_s S_p P_p + P_s S_s P_c + \Delta\mu_n \frac{m_t g}{S_s} + \\ & + m_t g + \frac{\rho V g}{S} = \frac{2\pi r l_x + \pi r_2 (r_2 + 2h_2)}{2\pi^2 r l_x r_2 (r_2 + 2h_2)} \mu F + P_s (S_p P_p + S_s P_c) + \\ & + \frac{m_t g (\Delta\mu_n + S_s)}{S_s} + \frac{\rho V g}{S}. \end{aligned} \quad (11)$$

$F=3,73 \text{ N}$, $r_2=4 \text{ cm}$, $h_2=8 \text{ cm}$, $\mu=0,7$, $r=5 \text{ cm}$, $l_x=23 \text{ cm}$, $P_p=148,5 \text{ N}$, $S_p=251 \text{ cm}^2$, $P_s=3,7 \text{ N}$, $P_c=51,61 \text{ N}$, $\Delta\mu_n=0,5$, $m_t=800 \text{ g}$, $S_s = 722 \text{ cm}^2$ bo'lganda, porshen harakatlanishiga qarshilik qiladigan kuchlar (11) ifoda bo'yicha $F_{pq}=411 \text{ N}$ ni tashkil qildi.

Dissertatsiyaning «**Biogumusdan tuvakchalar tayyorladigan qurilmaning parametrlarini asoslash bo'yicha o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida ishlab chiqilgan qurilmaning parametrlarining maqbul qiymatlarini asoslash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlari natijalari keltirilgan.


Qurilma ishchi qismlari parametrlarining maqbul qiymatlarini aniqlashda bir va ko'p omilli eksperimentlar o'tkazildi. Tajribaviy tadqiqotlarni o'tkazish uchun har xil turdagi zichlovchi porshenlar, diametri har xil bo'lgan porshenlar va laboratoriya qurilmasi (5-rasm) ishlab chiqildi va tayyorlandi.




5-rasm. Biogumusdan tuvakchalar tayyorladigan laboratoriya qurilmasi

Tajribalarni o'tkazishda baholash mezonini sifatida tuvakchani tayyorlanish darajasi, tuvakcha devorlari zichligi, tuvakcha devorini qoliplarga yopishib qolishi, tuvakcha devorining qalinligi hamda tuvakchani shikastlanishi qabul qilindi.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki (6-7-rasmlar), porshening deametri 70 mm dan 80 mm gacha o'zgartirilganda tuvakcha tayyorlanish darajasi 19 va 21 % li namliklarda mos holda 78 % dan 91 % ga va 80 % dan 94 % gacha ortib borgan.



6-rasm. Tuvakchani tayyorlanish darajasi (T_t) va uning o'rtacha kvadratik chetlanishi ($\pm\sigma$) hamda tuvakchani devorlari zichligi (ρ_t) va uning o'rtacha kvadratik chetlanishi ($\pm\sigma$) ni zichlovchi porshen deametri (D_p) ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari




7-rasm. Tuvakchani shikastlanishi (T_{sh}) ni zichlovchi porshen deametri (D_p) ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari


Porshen deametri 85 mm bo'lganda esa tuvakchanning tayyorlanish darajasi kamayib, 19 va 21 % li namliklarda mos ravishda 84 % va 86 % ni tashkil qilgan. O'rtacha kvadratik chetlanishlar esa deyarli o'zgarmagan. Buni yoysimon qoliqlar orasidagi bo'shliqda porshen biogumusni mavjud hajmiy muqдорini siqib tuvakcha devorlarini hosil qilishi bilan izohlash mumkin. O'tkazilgan tajribaviy tadqiqot natijalariga ko'ra, qurilmaning zichlovchi porshenini deametri 80 mm bo'lganda tuvakchanning tayyorlanish darajasi maksimal, tuvakcha devorlarining zichligi maqbul qiymatga hamda tayyorlangan tuvakchanning shikastlanishi eng kam bo'lishiga erishiladi.

Tajribalarda tuvakcha tubini teshuvchi porshenning teshik ochgichi tuvakchanning tubini markazidan teshib, porshenning orqaga qaytishida vakkum hosil bo'lishini bartaraf etdi, natijada tuvakcha devorlarining buzilishini oldi olindi. Siquvchi porshen va qoliqlar tomonidan tayyorlangan tuvakchalarning geometrik shakli talab darajasida bo'lib, porshenning ishchi yuzasiga nikel qoplanganligi sababli biogumus tuvakchalarni yopishib qolishi kuzatilmadi.


Tajribaviy tadqiqotlarda (8-9-rasmlar) yoysimon qoliqlar pnevmosilindrlarining bosimi 200 Pa dan 500 Pa gacha har 100 Pa oraliqda o'zgartirildi.




W = 19 %



W = 21 %




W = 19 %



W = 21 %

8-rasm. Tuvakchalarni tayyorlanish darajasi (T_t) va uning o'rtacha kvadratik chetlanishi ($\pm\sigma_t$), tuvakcha devorini qoliqlarga yopishib qolishi (T_{yo}) va uning o'rtacha kvadratik chetlanishi ($\pm\sigma_{yo}$) ni yoysimon qoliqlar pnevmosilindrlarining bosimi (P) ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari



1 – $W = 19\%$; 2 – $W = 21\%$

9-rasm. Tuvakchanning tushishdagi shikastlanishi ($T_{t.sh}$) ni yoysimon qoliplar pnevmosilindrlarining bosimi (P) ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi

Energiya sarfini kamaytirishga hamda qurulma tomonidan sifatli tuvakcha tayyorlanishiga erishish maqsadida kompressordan pnevmosilindrlarga turli havo bosimi berilib tuvakchalar tayyorlandi. Havo bosimi kompressorning manometri orqali nazorat qilib turildi. Bunda tuvakchalarni tayyorlash uchun ikki xil, ya’ni 19 va 21 % namlikdagi biogumus tayyorlandi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra zichlovchi porshen pnevmosilindrlarini bosimi 400 Pa bo‘lganda tayyorlangan tuvakcha devorlarining sifat ko‘rsatkichlari yuqori darajada bo‘lgan. Ushbu bosimda tuvakchanning tayyorlanish miqdori yuqori ko‘rsatkichga erishdi hamda tuvakchanning devorini qoliplarga yopishib qolishining va qoliplar orasidan tuvakchanning tushishidagi shikastlanishning foizi nisbatan past bo‘ldi. Bunda tuvakchani tayyorlanish darajasi 95 foizni, tuvakcha zichligi $1,44 \text{ g/cm}^3$ ni, tuvakchani tayyorlashda yorilish miqdori 7 foizni tashkil qildi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra zichlovchi porshen pnevmosilindrlarning bosimi 400 Pa etib qabul qilindi.

Dissertatsiyaning **“Ko‘chat yetishtirishda biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmaning xo‘jalik sinovlari natijalari va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlash”** deb nomlangan beshinchi bobida qurilmaning xo‘jalik sinovlari natijalari haqida malumot va ko‘chat yetishtirish uchun biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmadan foydalanishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Sinovlarda ishlab chiqilgan biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmaning tajriba nusxasi belgilangan texnologik jarayonni ishonchli bajardi va ish ko‘rsatkichlari unga qo‘yilgan talablarga to‘liq mos keldi.

Ishlab chiqilgan ko‘chat yetishtirishda biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmaning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan hisoblar ushbu qurilmani biogumusdan tuvakchalar tayyorlashda qo‘llanilganda mehnat sarfi

60 foizga va to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar 40,25 foizga kamayishini ko'rsatdi. Bunda bitta qurilma bo'yicha yillik iqtisodiy samara 132,7 mln. so'm ni tashkil etishi aniqlandi.

XULOSA

“Ko'chat yetishtirishda biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmani ishlab chiqish va parametrlarini asoslash” mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. O'tkazilgan tahlillar ko'chat yetishtirishda organik chiqindilardan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmalar va ular ishchi organlarining konstruktiv xususiyatlari asosida biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmaning konstruksiyasini ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

2. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra biogumusning 0-5, 5-10, 10-15, 15-20 va 20-25 cm qatlamlarida mos ravishda namligi 11; 13; 16; 14 va 14,2 % ni, zichligi 0,76; 0,81; 0,9; 0,92 va 1,05 g/cm³ ni, qattiqligi esa 1,15; 1,2; 1,25; 1,45 va 1,4 MPa ni tashkil qiladi. Biogumusni nikel bo'yicha ishqalanish koeffitsienti yuklama 0,78 N dan 2,78 N gacha oshganda 0,67 dan 0,74 gacha oshgan va 2,78 N dan 3,78 N gacha oshganda 0,7 gacha kamayadi.

3. O'tkazilgan laboratoriya tahlillariga ko'ra biogumusda umumiy azotning massaviy ulishi quruq moddaga nisbatan hisoblanganda 3 %, fosforning massaviy ulishi (P₂O₅) 4,5 %, quruq moddaga nisbatan organik moddalarning massaviy ulishi 38,5 % ni tashkil qiladi.

4. O'tkazilgan nazariy tadqiqotlarga ko'ra biogumusni siqish silindriga tushish darchasining yuzi 94 cm², yuklash idishining siqish silindriga o'rnatilish burchagi 42⁰, biogumusni surish yo'li 9 cm, himoya tiqini uzunligi 23 cm, siqish silindri uzunligi 56 cm, yoysimon qoliplarni ichki deametri 10 cm, yoysimon qoliplarning ochilish oraliq masofasi 16 cm, yoysimon qoliplarning harakatlantiruvchi pnevmosilindrlarni o'rnatilish oraliq masofasi 36 cm ni, siquvchi silindrni biogumus bilan ishqalanishda bo'ladigan ishchi yuzi 722 cm² bo'lishi lozim.

5. Tuvakchalarni eng kam shikastlanishi, tuvakcha devorlarining zichligining maqbul qiymati va maksimal darajada tayyorlanishini ta'minlash uchun zichlovchi porshening diametri 80 mm, zichlovchi porshen va yoysimon qoliplar pnevmosilindrlarining bosimi 400 Pa bo'lishi lozim.

6. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan ko'chat yetishtirishda biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilma belgilangan texnologik ish jarayonni ishonchli bajardi va uning ish ko'rsatkichlari dastlabki talablar va texnik topshiriqqa to'liq mos keladi hamda qurilma qo'llanilganda ko'chat yetishtirishda tuvakchalar tayyorlashni mexanizatsiyalashtirish darajasini oshirish imkonini beradi.

7. Ishlab chiqilgan ko'chat yetishtirishda biogumusdan tuvakchalar tayyorlaydigan qurilmaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha

o'tkazilgan hisoblar ushbu qurilmani biogumusdan tuvakchalar tayyorlashda qo'llanilganda mehnat sarfi 60 foizga va to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar 40,25 foizga kamayishini ko'rsatdi. Bunda bitta qurilma bo'yicha yillik iqtisodiy samara 132,7 mln. so'm ni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2020.Т.111.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**БУХАРСКИЙ ИНСТИТУТ УПРАВЛЕНИЯ ПРИРОДНЫМИ
РЕСУРСАМИ НАЦИОНАЛЬНОГО ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО
УНИВЕРСИТЕТА «ТАШКЕНТСКОГО ИНСТИТУТА ИНЖЕНЕРОВ
ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»**

ОРЗИЕВ САРДОР САМАНДАР УГЛИ

**РАЗРАБОТКА И ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ УСТРОЙСТВА ДЛЯ
ИЗГОТОВЛЕНИЯ ГОРШКОВ ИЗ БИОГУМУСА ПРИ ВЫРАЩИВАНИИ
РАССАДЫ**

**05.07.01 - Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2024.2.PhD/Г3738.

Диссертация выполнена в Бухарском институте природопользования национального исследовательского университета «Гашкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме) размещен на веб-странице Научного совета по адресу www.qmii.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Шавкат Жахонович Имомов
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Мусурмонов Азгам Турдиевич
доктор технических наук, профессор

Гаффаров Хасан Равшанович
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Самаркандский институт агроинноваций и исследований

Защита диссертации состоится «4» 03 2025 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2020 Т.111.02 при Каршинском инженерно-экономическом институте (Адрес 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, д.225. Тел. (+99875) 221-09-23, факс (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (регистрационный номер 137 Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, д. 225. Тел. (+99875) 221-09-23, факс (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz)

Автореферат диссертации разослан «19» февраля 2025 года

(Протокол рассылки № 8 «19» 02 2025 года)



Ф. М. Маматов

Председатель Научного совета по
Присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

Д.Ш. Чуянов

Ученый секретарь научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

Э.У. Эндавлатов

Председатель научного семинара при научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире одно из ведущих мест занимает применение энерго-ресурсосберегающих и высокопроизводительных устройств для изготовления горшков из органических отходов при выращивании рассады. Если учесть, что «в мировом масштабе общая площадь теплиц составляет не менее 1,3 млн га»¹, то требуется внедрение в практику устройств изготовления горшков для теплиц с высоким качеством работы и производительностью. В этом аспекте, особое значение имеет освоение производства и применение устройств для изготовления горшков из биогумуса.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на разработку новых научно-технических основ энерго-ресурсосберегающих технологий изготовления горшков из органических отходов для выращивания рассады в теплицах и технических средств для их осуществления. В частности, можно указать работы, направленные на создание, разработки устройств для изготовления горшков и обоснованию их технологических процессов и параметров рабочих органов. В этом аспекте, особое внимание уделяется разработке устройства для изготовления горшков из биогумуса, а также обоснованию технологического процесса его работы и параметров.

В сельскохозяйственном производстве республики проводятся широкомасштабные мероприятия по снижению затрат труда и энергии, выращиванию рассады по инновационным технологиям в бахчеводстве и овощеводстве, разработке энерго-ресурсосберегающих устройств для изготовления горшков из биогумуса при выращивании рассады с высоким качеством работы и производительностью. В стратегии развития сельского хозяйства республики Узбекистан на 2020-2030 годы намечены задачи, в частности, «... внедрение механизмов снижения государственного участия и повышения инвестиционной привлекательности в сфере, предусматривающих увеличение притока частного инвестиционного капитала для поддержки модернизации, диверсификации и устойчивого роста сельского хозяйства и пищевой отрасли, рационального использования земельных и водных ресурсов, повышения производительности труда в фермерских хозяйствах, улучшения качества продукции»². При выполнении этих задач, в частности, важным является разработка устройства для изготовления горшков из биогумуса при выращивании рассады, а также обоснование его параметров, обеспечивающих высокую качества работы с минимальными затратами энергии.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы» и

¹ <https://www.agbz.ru/news/obshchaya-ploshchad-teplits-v-mire-sostavlyayet-ne-menee-1-3-mln-ga/>

² Указ Президента Республики Узбекистан № УП 5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы»

№ УП-4549 от 11 декабря 2011 года «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию плодоовощеводства и виноградарства, созданию в отрасли цепочки добавленной стоимости», постановлении № ПП-4410 от 31 июля 2019 года «О мерах по ускоренному развитию сельскохозяйственного машиностроения, государственной поддержке обеспечения аграрного сектора сельскохозяйственной техникой», а также в других нормативно-правовых актах, касающихся данной деятельности.

Связь исследования с основными приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики ИИ. «Энергетика, энергия и ресурсосбережение».

Степень изученности проблемы. За рубежом по созданию, усовершенствованию и обоснованию параметров устройств для изготовления горшков из биогумуса при выращивании рассады исследования проведены Н.Васильевой, П.Красином, И.Бумбар, М.Канделя, В.Рябченко, П.Шилковым, С.Шитовым, С.А.Смирновым, А.Виноградовым, Ю.Липов, Б.Шульженко, Л. Махлином, Д. Кабели и другими.

